

QASHQADARYO VILOYATIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI TIZIMINING SHAKLLANISH TARIXI VA UNING IJTIMOIIY-SIYOSIY OMILLARI.

Ne'matov Shavkatjon Boymurod o'g'li

Qarshi davlat texnika universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0009-1747-744X

shavkatjonnematov400@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Qashqadaryo viloyatida Sovetlar davridagi yillarida umumiy o'rta ta'lim maskanlarining ahvoli yoritilgan. Bu davrda viloyatdagi ta'lim tizimidagi kamchiliklar, o'qitish tizimining ortda qolganligi, o'quv xonalarining yetishmasligi, ta'limning siyosiy mafkuralarga yo'naltirilganligi atroflicha yoritilgan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati hududida ta'lim tizimiga kam mablag` ajratilishi natijasida maktab ta'limining sifati yomonlashuvi, maktab yoshidagi bolalarning qishloq xo'jaligi ishlariga safarbar etilishi natijasida ta'lim tizimining izdan chiqishi ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga yangi tipdagi maktablarning rivojlanishi, hududlardagi faoliyati aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo, to'liqsiz o'rta maktab, o'quv maskanlari, zarur o'quv qurollari, o'quv binosi, moddiy-texnik baza, joriy ta'mirlash.

Аннотация. В статье рассматривается состояние общеобразовательных средних учебных заведений Кашкадарьинской области в советскую эпоху. В этот период подробно освещаются недостатки системы образования в регионе, отсталость системы образования, нехватка классных комнат и ориентация образования на политические идеологии. Также показано ухудшение качества школьного образования в Кашкадарьинской области вследствие недостаточного финансирования системы образования и срыв системы образования в результате мобилизации детей школьного возраста на сельскохозяйственные работы.

Одновременно упоминается развитие новых типов школ и их деятельность в регионе.

Ключевые слова: Кашкадарья, недостроенная средняя школа, учебные помещения, необходимое учебное оборудование, учебное здание, материально-техническая база, текущий ремонт.

Abstract. The article covers the state of general secondary education institutions in the Kashkadarya region during the Soviet era. During this period, the shortcomings of the education system in the region, the backwardness of the education system, the lack of classrooms, and the orientation of education towards political ideologies are covered in detail. It also shows the deterioration of the quality of school education in the Kashkadarya region as a result of the low allocation of funds to the education system, and the disruption of the education system as a result of the mobilization of school-age children to agricultural work. At the same time, the development of new types of schools and their activities in the regions are mentioned.

Keywords: Kashkadarya, incomplete secondary school, educational facilities, necessary educational equipment, educational building, material and technical base, current repairs.

Qashqadaryo viloyatida sho'rolar o'z hokimiyatlarini o'rnatganlaridan keyin xalq ommasi o'rtasida o'zlarining sho'rocha mafkuralarini imkon qadar tezroq yoyishga harakat qildilar. Buning uchun ular, avvalo, xalqni yangicha savodli qilishga katta e'tibor qaratdilar¹. Ta'lim sohasida ham qator islohotlar amalga oshirilib, ushbu soha rivojlantirishga oid muhim qarorlar qabul qilindi. 1958-yilda yetti yillik majburiy ta'lim o'rniga o'n yillik umumiy majburiy ta'lim joriy qilindi. Bu davrda O'zbekistondagi 7044 ta umumta'lim maktablarida 1399,9 ming bolalar tahsil olardi².

Qashqadaryo hududida joylashgan Yertepa qishlog'ida ham SB (savodsizlikni bitirish) hamda ChSB (chalasavodlikni bitirish) kabi maktablar ochilgan. Qishloq faxriysi

¹ Xo'jamov.X. Yertepa qishlog'i tarix zarvaraqlarida. Qarshi «Nasaf» nashriyoti, 2020. b-161.

² O'zbekiston SSR rahbariyatining ijtimoiy va siyosiy faoliyati (1945 - 1983 yillar) «Fan» nashriyoti, Toshkent-2020. 168-b.

Murodulla bobo Ochilovning gapirib berishlaricha, Yertepa qishlog'ida birinchi maktab 1924-yilda Sulton qassobning mehmonxonasida Islom Badriddinov tomonidan tashkil etilgan. Mazkur maktabning birinchi o'quvchilari Qurbon O'ljaboev, Qayum Bozorov, Yusuf Ostonov, To'raqul Jo'rayevlar bo'lishgan. Nisbatan zamonaviy maktab 1929-yilda Yertepada qadimda yashagan Muxtorxon eshon boboning hovlisida 3 ta sinfdan iborat qilib tashkil etilib, unga Budyonniy nomi berilgan. 1937-yilda kolxoz yordamida va hashar yo'li bilan 320 o'rinli yetti yillik maktab binosi qurilgan. 1970-yillarga qadar mazkur maktabning eskirgan binolaridan ma'lum muddat internat sifatida foydalanib kelingan. Mazkur internat davlat tasarrufida bo'lib, qishloqning nisbatan nochor oilalarining bolalari yotib o'qiganlar. Maktabning eski binosidan, shuningdek, xo'jalik xonalari sifatida ham foydalanib kelingan. Maktab binosi paxsa devordan tiklangan bo'lib, tomi shiferlanmagan edi. Shu sababli eskirib qolgan bino xavfsizlik nuqtai nazaridan 1980-yillarga kelib tekislanib tashlangan va o'rnida maktab o'qituvchilari va o'quvchilarining harakati bilan bog' tashkil etilgan.. 1961-yilga kelib ota-onalar, o'qituvchilar va o'quvchilar kuchi bilan 490 o'rinli sakkiz yillik maktab binosi o'sha davrlarda maktab direktori bo'lib ishlagan Murodulla Ochilov rahbarligida qurilgan. O'sha yili maktabning nomi Mayakovskiy nomi bilan o'zgartirilgan. Maktab 1974-1975 o'quv yilida o'n yillik o'rta maktabga aylantirilgan³. Albatta maktablarning moddiy-texnik holatlari talab darajasida bo'lmasligi tumanda ta'lim sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Viloyat hududidagi Chandir qishlog'i aholisi Ulug' Vatan urushi yillarida madaniy qurilish, maorif sohasida ham birmuncha ishlarni amalga oshirdilar. Fashistlar Germaniyasining mamamlakatimizga hujumi maktab o'quvchilari uchun kutilmagan qiyinchiliklarni keltirib chiqargan. Ko'pgina o'qituvchilar urushning dastlabki kunlaridayoq ko'ngillilar qatorida frontga ketgan. Bolalarni o'qitishga muallimlar yetishmasdi. Ayniqsa chalasavodsizlikka qarshi kurash sekinlashgan. Beshkent tuman partiya qo'mitasining 1941-yil 28 iyuldagi byurosida Chandir to'liqsiz o'rta maktabi direktorligiga Aymat Rahimovni tasdiqlagan. Uning ma'lumoti 8 sinf hajmida edi. 1941-

³ Xo'jamov.X. Yertepa qishlog'i tarix zarvaraqlarida. Qarshi «Nasaf» nashriyoti, 2020. b-162.

yilning 1-avgustida Xolja Bobojonov Nayiston boshlang'ich maktabiga mudir qilib tayinlandi. 1941-yilning oktabrida Chandir maktabi Nayiston boshlang'ich maktabi jamoalarining savodsizlikka qarshi olib borayotgan ishi qoniqarsiz bo'lganligi sababli Beshkent rayon xalq maorifi bo'limi mudiri tomonidan har ikkalasiga hayfsan e'lon qilindi. 1941-yilning 4-noyabrida Chandir to'liqsiz o'rta maktab direktori A.Rahimov direktorlikdan bo'shatilib o'rniga Vagiz Nigmatulin tayinlandi. 1941-yilda Chandir maktabi qoshida ochilgan savodsizlikni bitirish sinflarida 273 tinglovchi bo'lib, ular 10 ta sinfga bo'linib o'qitilar sakkiz muallim ularga saboq bergan⁴. Lekin shunday bo'lsada savodsizlikka qarshi kurash natijasida aholining anchagina qismi o'qish yozishni o'rganib olgan.

1990-yilga kelib Chandir qishloq soveti hududida Furqat, Lomonosov, Al-Xorazmiy nomli o'rta maktablar mavjud bo'lgan. To'rt maktabdagi 2562 nafar o'quvchiga 211 nafar muallim ta'lim bergan. Shu qishloq sovetiga qarashli 940 nafar o'quvchi bilim oladigan Furqat nomli maktabda mashg'ulotlar bir smenada olib borilgan. Jamoa ma'muriyati maktab-maorif ishiga yaqindan yordam ko'rsatgan. Chunonchi, 1990-yilda quyi sinf o'quvchilarining bepul ovqatlanishi uchun 37,5 ming so'm ajratgan. Furqat nomli maktabga 40 ming so'mlik kompyuter sistemasi o'rnatilgan⁵. Respublikadagi ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar ta'lim sifatining oshishiga olib kelgan. Bu jarayonlar tuman maktablarida ham ko'zga tashlangan. Albatta maktablarni kompyuterlar bilan jihozlanishi quvonarli holat bo'lgan.

G'uzor shahrida XIX asrning birinchi yarmida qurilgan madrasa binosi saqlanib kolgan. Aftidan, qishloqlarda ham savod chiqarishga mo'ljallangan eski maktablar ko'p bo'lgan. Ulardagi ta'lim uslublari, dasturlar to'g'risida ma'lumotlarini aniqlash qiyin. Iqtidorli, ilmga qiziquvchi yoshlar Buxoro madrasalarida ta'lim olganliklari ma'lum. G'uzor tumaniga qarashli Arab va Pastqovchin qishloqlari o'rtasida ikki qavatli maktab binosi faoliyat ko'rsatgan. Bu maktab 1978-yilgacha boshlang'ich ta'lim berishga

⁴ Jo'raqulov. O.Chandir turkmanlari. Fan nashriyoti. Toshkent-1992.B-83

⁵ Jo'raqulov. O.Chandir turkmanlari. Fan nashriyoti. Toshkent-1992.B-44

mo'ljallangan. Maktab mustaqillikgacha Karl Marks nomi bilan atalib, keyinchalik Fitrat nomini olgan. Ayni paytda, 45- o'rta umumta'lim maktabi deb yuritiladigan bu muassasa tumandagi katta maktablardan biri sanaladi⁶. Bu maktab o'z bag'riga ilk o'quvchilarini 1936-yili qabul qilib o'z faoliyatini boshlagan. Ustoz Berdiyev va Latipovalar dastlabki saboq berishgan. Ulug' Vatan urushi boshlangach ta'lim maskani o'z bag'riga polyak xalqi vakillarini qabul qilgan. Bu davrda Aminov va Xo'jayevlar o'qituvchilik qilishgan. 1951-1952 yillarda maktabga Karl Marks nomi berilib, mustaqil boshlang'ich maktabga aylantirilgan. Sovlig'arlik Qudrat Murodov mudirlik qilib 1954-yildan boshqargan. 1956-yildan maktabga rustam Bastamov, 1957-yildan Sa'dulla Normurodov, 1958-yildan maktabga Jo'ra Ne'matovlar mudirlik qilishgan. O'sha yillari yana 2 ta qo'shimcha sinf xonasi qurib berilgan. 1961-1971 yillar mobaynida yana mudirlik vazifasini Rustam Bastamov bajargan. 1971-1972 yillari Dilbar Hamroyeva avval mudira so'ngra direktor bo'lib ishlagan. Maktabga qo'shimcha 4 ta xona qurilib foydalanishga topshirilgan. 1973-yildan boshlang'ich maktabga 5-sinflar filial qilib qoldirilgan. 1975-yildan sakkiz yillik maktabga aylantirilgan. 1976-yildan duradgorlik ustaxonasi, oshxona-bufet qurib berilgan. 1983-yili yana 5 ta sinf xonasi qurib topshirilgan. 1986-yildan maktab direktorligiga Umar Abrayev tayinlangan. 1991-1992 o'quv yilida maktab hovlisida 420 o'rinli yangi tipovoy o'quv binosi foydalanishga topshirilgan.

Tumandagi Do'ngqovchin qishlog'i esa avtomagistral yoqasida joylashgan beshta qishloqlarning o'rtasida joylashganligi uchun unda to'liqsiz o'rta maktab tashkil qilingan va shu maktab atrofdagi maktablar orasida birinchi bo'lib o'rta maktabga aylantirilgan. 1954-yilda ilk marta yoshlarga o'rta ma'lumot haqidagi yetuklik attestati bera boshlagan bu maktab o'sha yillarda Stalin nomi bilan atalgan. Keyinchalik maktab rus shoiri Mayakovskiy nomi bilan ham ataldi, "Kommunist" o'rta maktabi deb ham yuritilgan. 1991-yilda unga maktabda uzoq yillar ishlagan Xudoyqul To'rayev nomi berilgan. Hozirgi kunda esa maktab 8-o'rta umumta'lim maktabi deb yuritiladi⁷.

⁶ H.Nuriddinov.G`uzornoma.Toshkent-2011.B-117

⁷ H.Nuriddinov.G`uzornoma.Toshkent-2011.B-118

Tumanda ko'p yillar xalq ta'limiga rahbarlik qilgan Aziz Haydarovning xotira yozuvlarida bayon qilinishicha, hududda yangicha maktablar 1920-yildan boshlab tashkil qilingan. Maxsus binolar bo'lmaganligi uchun boylarning mehmonxonalarida faoliyat olib borgan dastlabki maktablarda boshqa viloyat va shaharlardan kelgan o'qituvchilar dars berishgan. Sharoit yetarli bo'lmaganligi uchun tez-tez yopilib, yana qayta tashkil qilinib turgan maktablar soni 1924-yilga kelib o'ndan ortiq bo'lganligi va Ahmad qori Ismoilov tuman xalq ta'limi bo'limiga rahbarlik qilganligi ma'lum.

1936-yilda tumanda Fayzulla Xo'jayev nomli 1-to'liqsiz o'rta maktab tashkil qilinib, bu muassasa uchun maxsus bino qurilgan. Ta'lim o'zbek va rus tillarida olib borilgan bu maktabda nafaqat tuman markazida yashovchi aholi, balki atrof qishloqlar, Qamashi va Dehqonobod tumanlari aholisining farzandlari ta'lim ola boshlagan. Atoqli davlat arbobi F. Xo'jayev qatag'on qilingach, maktabga Pushkin nomi berilgan. 1967-yili bu maktabdan 6-o'rta maktab ajralib chiqqan va unga G'afur G'ulom nomi berilgan. Ta'lim rus tilida olib boriladigan bu maktabda 90-yillardan so'ng o'quvchilar va rus tilida o'qiydigan sinflar soni bir muncha kamayib qolgan. Shuning uchun bu maktab bazasida 1996-yili 76-ixtisoslashtirilgan maktab-internat tashkil qilingan. Futbol va kurash kabi sport turlarini o'rgatishga ixtisoslashtirilgan bu maktabdan ko'plab sportchilar yetishib chiqqan. Sobir Rahimov mahallasida tashkil etilgan 34-o'rta maktab birinchi kosmonavt Gagarin nomi bilan atalgan edi. 1987-yilda tumanda qurib ishga tushirilgan 53-o'rta maktab dastlab Engels, keyinchalik esa Qori Niyoziy nomi bilan atalgan. Paxtazor mahallasidagi maktab Usmon Yusupov nomli 52-maktab deb yuritilgan. Chanoq mahallasidagi 14- maktab esa "G'alaba", keyinchalik Sharafiddin Sharipov nomi bilan ataldi. 1992-yilda 34- maktabning eski va nochor binosida tabiiy va aniq fanlarni o'rganishga ixtisoslashtirilgan maktab-internat tashkil qilindi. 68- raqamli bu muassasa Aziz Haydarov nomi bilan yuritildi. Tuman aholisini ommaviy savodxon qilishga o'zlarining katta hissalarini qo'shgan ulug' ziyolilarni xalq bir umr yodida saqlab, qadrlab kelmoqda. O'zbekiston xalq o'qituvchisi Shafoat To'rayeva, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" unvoniga sazovor bo'lgan Aziz Haydarov, Ergash Qurbonov, Xolmat Saidov, Robiya O'rinova, shuningdek, Ahmad Ismoilov, Zoir Ostonov, Nusrat Ismatov, Sharof Muhiddinov, Ulash Omonov,

Najmiddin Muxiddinov, Uroq Sharipov, Do'stqul To'xtayev, Chori Nazarov, Nurboy Maxsumov, Mahmud Niyozov, Mahmud Normatov, Ulash Meyliyev singari o'nlab ziyolilar tumanda xalq ta'limi rivojlanishi uchun qo'ldan kelgan bor imkoniyatini qilganlar.

G'uzor tumani Qoratikan qishlog'ida bir necha "eski maktab"lar ishlab turgan. Yangicha uslubda o'qitadigan maktab Amir supaning yonida joylashgan bo'lib, uzun koridorning ikki tomonida 4-5 ta xonadan iborat binoda ish olib borgan. Partalar dastlab loydan yasalgan, devor qalin suvalib, qora rangga bo'yalgan va u doska vazifasini bajargan. "Qizil askar" deb nomlangan bu boshlang'ich maktab binosi juda eski va nochor ahvolda bo'lgan. Devorlari yorilib, unda bolalarni o'qitish xavfli bo'lib qolganda, maktab turli joylarga ko'chirilgan. Hatto kolxoz fermasidagi omborxonada ham o'qitilgan paytlar bo'lgan. Qishloq aholisi hashar yo'li bilan qurgan binoda ham bolalar bir necha yil o'qitilgan. 70-yillar boshida maktabga unchalik katta bo'lmagan bino qurib berilgan. Bu davrga kelib maktab birinchi kosmanavt ayol V. Tereshkova nomi bilan atalgan. Qoratikan va Keskak qishloqlarining bolalari o'qiydigan bu maktab nihoyatda tor bo'lib qolganidan 1990-yilda yangi, ikki qavatli maktab binosi qurib bitkazilgan. Aholi sonining ortib borishi va o'quvchilar ko'pligi hisobga olinib, maktab ikkiga bo'lingan, Qoratikan qishlog'idagi yangi, 44-o'rta umumta'lim maktabiga shu qishloqning eng keksa pedagoglaridan biri, marhum Najmiddin Muhiddinov nomi berilgan. Viloyatimizda maktablar ta'limi har qanday sharoitda ham, har qanday siyosiy mafkuralar natijasida ham to'xtab qolmagan. Aholini savodli qilish uchun jamiyatning ziyoli qatlami doimo o'z mehnatini ayamagan.

Qamashi tumanida dastlabki maktablar 30-yillar atrofida tashkil topgan. Bu maktablar avvaliga to'rt yillik, so'ngra yeti yillik bo'lgan. Chekka qishloqlarga hukumatning yo'llanmasi bilan ko'plab o'qituvchilar kelib bolalarga o'qish va yozishni o'rgatgan. Bu muallimlar kunduz kunlari bolalarni o'qitsa, kechqurunlari katta yoshdagi erkak va ayollarga saboq berishgan. Yozuvlar lotin alifbosida olib borilgan. Bu hozirgi lotin yozuvidan birmuncha farq qilgan. 1940-yilga kelib esa kirill alifbosi joriy etildi. O'sha so'ronli yillarda chekka qishloqlarda, og'ir sharoitlarda ish olib borib, ezgu ishlarni bajargan muallimlar: Abdirahmonov, Chestakova, Kinopen, Amakov, Yahyoyev,

Muqimov, Iskandarov, Rahmonov, Vafojev, Hamidov, Mirzaev, Galiev, Ibragimov, Nizayeva, Malikov, Karimov, Aliqulov, Majidov, Urolboyev tumanda maorif ishining ta'mol toshini quyishgan. Tumanda birinchi yetti yillik maktab Qamashida, Kaganovich nomi bilan ochilgan. Keyinchalik bu maktabga Suvorov, so'ngra Amir Temur nomi berilgan. Ikkinchi maktab To'qboy qishlog'ida M.Gorkiy nomli, uchinchi Qorabog' qishlogida "O'zbekiston" nomli va to'rtinchi maktab Chimda va beshinchi maktab Qiziltepa qishlog'ida Sverdlov nomida, Arab qishlog'ida Hakimjon Ismoilov nomida, Langarda "Kommunist" nomidagi maktablar faoliyatlarini boshlagan. Tuman aholisi Ikkinchi jahon urushi azoblarini boshdan kechirgan davrlarda ham, odamlar umidsizlikka tushmagan. Bolalar tarbiyasi va maktab ishi doim e'tiborda bo'ldi⁸. Qashqadaryo viloyati hududidagi maktablarda har doim ta'lim qanday sharoitda bo'lmasin, yuqori darajada tashkil etilishi uchun hududning ziyoli qatlami mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanishga harakat qilgan. To'g'ri, Sovet davlatiga qaramlik doim ham kutilgan natijani bermagan. Sababi, tizim siyosiy mafkuralarga yo'naltirilgan. Bu tadbir natijasida nafaqat viloyatda balki, respublikada ham maktab yoshidagi o'quvchilarning bilim olishi cheklangan. Lekin Sovetlar davrida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlari ichida ma'lum bir ijobiy ishlar ham qilingan edi. Xususan, o'quvchilarni besh balli tizimda baholash tizimi joriy etilgan. Bundan tashqari yangi tipdagi maktablar tashkil etilishi diniy usuldagi eski maktablarning tugashiga olib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.O'zbekiston SSR rahbariyatining ijtimoiy va siyosiy faoliyati (1945 - 1983 yillar) «Fan» nashriyoti, Toshkent-2020. 168-b.

2.Ю.А.Эргашева, З.С.Сафарова. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон маданияти. Қарши – 2020.б-37

⁸ Т.Boymirov,О'.Boyqobilov. Qamashi va Qamashiliklar.Toshkent-2016.В-143

3. Xo'jamov. X. Yertepa qishlog'i tarix zarvaraqlarida. Qarshi «Nasaf» nashriyoti, 2020. b-161.
4. Jo'raqulov. O. Chandir turkmanlari. Fan nashriyoti. Toshkent-1992. B-83
5. H. Nuriddinov. G`uzornoma. Toshkent-2011. B-117
6. T. Boymirov, O'. Boyqobilov. Qamashi va Qamashiliklar. Toshkent-2016. B-143
7. Э.Эргашев Бешкент тарихи Қарши "Насаф" нашриёти 2000. Б-112.